

## TABIATNI MUHOFAZA QILISHNING HUQUQIY ASOSLARI VA SUVDAN OQILONA FOYDALANISH

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10555706>

**Norqulov Muxtor Mavlanovich**

*Termiz davlat universiteti Akademik litseyi Davlat va huquq asoslari fani o'qituvchisi*

Tabiatni muhofaza qilish ; tabiat va uning boyliklaridan oqilona foydalanish inson o'z manfaatlarini ko'zlab tabiatni ongli ravishda o'zgartirishga uning go'zaligini so'limligi-yu musaffoligini asrab qolishga va yanada boyitishga qaratilgan chora tadbirlar majmuasidir.Tabiatni muhofaza qilishga davlatlar, xalqaro tashkilotlar ,jamoat iqtisodiy va ma'muriy tashkilotlar, har bir individ ongli mavjudod tomonidan amalga oshiriladigan tadbirlar kiradi. Hozirgi vaqtda inson yashab to'xtovsiz munosabatlarda bo'lib kelayotgan tabiiy muhit uzoq davrlar mobaynida bir qancha omilarning birlgiligidagi ta'sirida bo'ladi undan o'ziga kerakli narsalarni oladi shu muhitga moslashadi, uning tarkibiga undagi bor narsalarga ma'lum darajada o'zgartirish kiritadi. Inson tabiiy sharoitlar va boyliklardan ko'p maqsadlarda foydalanadi. Bu esa tabiatni tegishlicha himoya etishni taqazo etadi .Tabiatdan foydalanish deganda tabiat boyliklaridan mamlakat yoki butun insoniyat manfaati yo'lida foydalanish kiradi. Bundan hozirgi va keljak avlod kelajagi birinchi darajaga ko'tariladi .O'z taraqqiyotini uzoq muddatga ilmiy asosda rejalshtira oladigan jamiyatgina taraqqiyotga erisha oladi .O'zbekistonda XX asrda ayniqsa uning ikkinchi yarmida qishloq xo'jaligida monakaltura tizimining qo'lanishi GERBITSID va PESTITSIDLARning haddan tashqari ko'p ishlatilishi ,mavjud suv zaxiralaridan noto'g'ri foydalanish oqibatida atrof -muhit holatida katta salbiy o'zgarishlar ro'y berdi .Orol deyarli quridi, uning atrofida cho'llanish kuchayib ketdi, yer suvlarining sho'rlik darajasi oshdi .Inson salomatligi uchun zarur sharoitlar buzildi .

O'zbekiston mustaqilikka erishgach ,dastlabki kunlardan boshlab ,tabiatni muhofaza qilishga respublika hududini ekologik tanazuldan muhofaza qilishga kirishdi, tabiat va uning komponentlarini muhofaza qilish to'g'risidagi bir qancha qonunlarni qabul qildi .Bular "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida" "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida" "Yer osti boyliklari to'g'risida" "Atmosfera havosini muhofaza qilish tog'risida " "O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan oqilona foydalanish to'g'risida" ."Davlat kadastrlari to'grisidagi" "O'rmon to'grisida"gi qonunlardir.

O'zbekiston respublikasi konstitutsiyasining 62,68-moddalarida tabiatni muhofaza qilishga oid normalar bayon etilgan. Konstitutsiyaning 11-bobining 62-chi moddasida Fuqorolar atrof tabiiy muhitga extiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar deb ko'rsatilgan. 68-moddasida Yer ,yer suv osti boyliklari davlat,suv o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar umumilliy boylikdir, zarur va ular davlat muhofazasidadur ,deyilgan. Undan tashqari mamlakatimizda 1996-yil 26-aprelda Oliy Majlis tomonidan tasdiqlangan nizom asosida "Tabiatni muhofaza qilish " davlat qo'mitasi tashkil etildi . Qo'mita quydagi vazifalarni bajaradi: atrof- muhitni muhofaza qilish ,tabbiy resurslardan foydalanish, ularni qayta ishlash ustidan nazorat qilish, tabiatni muhofaza qilish yuklatilgan .

Ekalogiya huquqi huquq tizimining sohasi sifatida ekologik munosabatlarni tartibga solishda qonuniylikni ijtimoiy adolat,oshkoralik ishontirish, majburlov choralarini kombinatsiyasi hisoblanadi. Shaxslar tabiatni asrashda huquq va burchlarni birligi va boshqalardan foydalanadi.